


III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI


2021- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) umumiy hajmi 7316,3 mlrd.so‘mni yoki 2020- yilning shu davriga nisbatan 100,4 foizni, shu jumladan, dehqonchilik, chorvachilik va bu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 7131,8 mlrd. so‘mni (100,2 foiz), ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish va bu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 0,1 mlrd. so‘mni (100,3 foiz), o‘rmonchilik xo‘jaliklarida 61,9 mlrd. so‘mni (101,5 foiz), baliqchilik xo‘jaliklarida 122,5 mlrd. so‘mni (113,4 foiz) tashkil qildi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlar) ning hajmi va o‘rish sur‘atlari



Xususan, yuqori o‘rish sur‘ati Yangiariq tumani (103,9 foiz), Bogot tumani (103,8 foiz), Xiva (103,3 foiz) shahrida kuzatildi. Aksincha, eng past o‘zgarish Tuproqqal’a tumanida (92,9 foiz) va Shovot tumanida (97,3 foiz) kuzatildi.


**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari mahsulot (xizmat) larining
hududlar kesimida taqsimlanishi (foiz hisobida)**



Viloyatning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida hududlarning ulushi Urganch tumani- 11,8 foiz, Hazorasp tumani - 10,7 foiz va Xonqa tuman -10,6 foizni tashkil etdi va hududlar bo‘yicha yetakchilik qilmoqdalar. Xiva, Urganch shaharlari va Tuproqqala tumani mos ravishda 0,5 foiz, 2,4 foiz va 2,3 foiz ko‘rsatkich bilan keyingi o‘rinlarni egallashdi, eng kam ulush Xiva (0,5 foiz) shahrida qayd etildi.


Qishloq xo‘jaligi sohasida 2021- yilning yanvar-iyun oylarida 7072,7 mlrd so‘mlik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining o‘sishi 2020- yilning mos davriga nisbatan 100,0 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 89,4 foizni va chorvachilik mahsulotlari 103,8 foizni tashkil qildi.

2021- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)




Viloyat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarida eng katta ulushni dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari egallagan bo‘lib, 2021- yil yanvar-iyun oylarida jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 85,6 foizini (2020- yil yanvar-iyun oylarida –83,0 foiz) tashkil qildi. Ferma xo‘jaliklari tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 12,1 foizi ishlab chiqarilgan (2020- yil yanvar-iyun oylarida 15,2 foiz), shuningdek, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 2,3 foizi (2020- yil yanvar-iyun oylarida –1,8 foiz) ishlab chiqarilgan.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilikning ulushi



Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




2021- yilning yanvar-iyun oylarida 7072,7 mlrd. so'mga teng bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi va ushbu hajmning 1699,0 mlrd. so'mga teng qismi yoki 24,0 foizi dehqonchilik, 5373,7 mlrd. so'mga teng qismi yoki 76,0 foizi chorvachilik sohasiga to'g'ri keladi.

2021- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishda Bog'ot tumanida (33,3 foiz), Tuproqqal'a tumanida (28,2 foiz) va Xiva shahrida (28,1 foiz) yuqori ko'rsatkich qayd etildi. Eng kam ulush Urganch shahrida (4,0 foiz) qayd etildi.

Shuningdek, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori ko'rsatkichlari Urganch shahrida (96,0 foiz), Shovot tumanida (80,6 foiz) hamda Gurlan tumanida (80,2 foiz) qayd etildi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarining hududlar hamda xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi



Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha tuman va shaharlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishi kuzatildi. 2021 yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Yangibozor tumani (19,1 foizi), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Urganch (100,0 foizi) va Xiva (99,9 foizi) shaharlarida va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Xonqa (5,2 foizi) va Bog'ot (3,0 foizi) tumanlarida qayd etildi.


Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich esa Shovot (8,5 foiz) va Xiva (9,1 foizi), dehqon (shaxsiy yordamchi)

xo'jaliklarining eng kam ulushi Xonqa (76,9 foizi) hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Xiva shahri (0,1 foiz) va Hazorasp (1,0 foiz) tumanlarida qayd etildi.



Dehqonchilik. 2021- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlari umumiy hajmi 1699,0 mlrd. so'mni yoki jami yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining 24,0 foizini tashkil qildi. 2020 yilning shu davriga nisbatan 89,4 foizni, jumladan, fermer xo'jaliklarida 670,2 mlrd. so'mni (76,6 foiz), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida 978,9 mlrd. so'mni (99,5 foiz), qishloq xo'jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 49,9 mlrd. so'mni (138,4 foiz) tashkil qildi.

Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishni hududlar kesimida xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi




Hosil yig'imi. 2021- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 210 540 tonna don mahsulotlari (83,2 foiz), shundan 210021 tonna boshqoli don, jumladan 207353 tonna bug'doy, 5 2241 tonna kartoshka (100,4 foiz), 87 778 tonna sabzavot (100,6 foiz), 8 012 tonna poliz (88,8 foiz), 33 186 tonna meva va rezavor (86,1 foiz), 925 tonna uzum (101,1 foiz) yig'ib olindi.




Chorvachilik. 2021- yilning yanvar-iyun oylarida chorvachilikda ishlab chiqarilgan mahsulotlar umumiy hajmi 5373,7 mlrd. so'mni yoki 2020- yilning shu davriga nisbatan 103,8 foizni, jumladan, fermer xo'jaliklarida 186,0 mlrd. so'mni (96,9 foiz), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida 5 078,0 mlrd. so'mni (103,9 foiz), qishloq xo'jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 109,6 mlrd. so'mni (115,1 foiz) tashkil qildi.

Viloyat tumanlarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi (foiz hisobida)




2021 - yilning 1 - iyul holatiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 103,5 foizni (jami 927,7 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 101,2 foizni (343,4 ming bosh), qo'y va echkilar 102,6 foizni (445,2 ming bosh), otlar 107,4 foizni (5,3 ming bosh), parrandalar 107,6 foizni (6144,9 ming bosh) tashkil qildi.

2021 yil 1 iyul holatiga chorva mollari bosh sonlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go'sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o'sishi asosan dehqon va fermer xo'jaliklari hisobiga bo'lib, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 99,5 foizni, sut ishlab chiqarishda 99,7 foizni, tuxum ishlab chiqarishda 67,07 foizni tashkil etdi.

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2021- yil 1- iyul holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni


	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
Yirik shoxli qoramol	927,7	103,5
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	59,8	101,5
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	859,1	103,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	8,8	149,2
ulardan: sigirlar	343,4	101,2
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	22,9	104,6
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	317,7	100,7
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	2,8	164,7
Qo'y va echkilar	445,2	102,6
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	58,7	110,1
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	380,0	100,6
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	6,5	216,7
Otlar, bosh	5321	107,4
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	596	112,9
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	4691	106,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	34	242,9
Parrandalar	6144,9	107,6
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	717,7	109,1
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	3849,4	102,7
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	1577,8	121,0

**2021 yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan
chorvachilik mahsulotlari**

	<i>miqdori</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	88,5	106,2
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	2,2	99,3
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	85,8	106,4
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	0,5	110,3
Sut, ming tonna	556,7	100,5
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	19,5	94,6
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	535,3	100,6
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	1,9	122,7
Tuxum, mln. dona	273,6	102,8
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	20,2	107,6
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	163,1	99,1
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	90,3	109,3
Jun, tonna	583	97,8
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	68	119,3
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	514	95,5
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	1	100,0
Qorako'l teri, dona	5690	82,7
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	558	140,0
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	5102	79,0

2021- yilning yanvar-iyun oylarda fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 856,2 mlrd. so‘mni yoki 2020- yilning tegishli davriga nisbatan 80,4 foizni tashkil qildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo‘jaliklarining ulushi 12,1 foizni tashkil etdi.

Fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimlanishi (foizda)




2021 - yilning 1 - iyul holatiga fermer xo‘jaliklarida 59,8 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan 22,9 ming bosh sigir, 58,7 ming bosh qo‘y va echkilar, 596 bosh ot, 717,7 ming bosh parrandalar mavjud bo‘lib, 2020 - yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar soni 101,5 foizni, shu jumladan sigirlar 104,6 foizni, qo‘y va echkilar 110,1 foizni, otlar 112,9, parrandalar 109,1 foizni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlari


	yanvar-iyun				2020- yanvar- iyun oylariga nisbatan foiz hisobida
	2020- yil		2021- yil		
	tonna	ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz	tonna	ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz	
Jami don	166008	65,6	130548	62,0	78,6
Boshoqli don	165069	65,4	130083	61,9	78,8
Bug‘doy	162044	65,1	127419	61,5	78,6
Kartoshka	7196	13,8	5238	10,0	72,8
Sabzavot	16545	19,0	11626	13,2	70,3
Poliz	7086	78,5	5719	71,4	80,7
Meva	11144	28,9	6743	20,3	60,5
Uzum	440	48,1	396	42,8	90,0
Go‘sh, tirik vaznda	2211	2,7	2196	2,5	99,3
Sut	20603	3,7	19500	3,5	94,6
Tuxum, mln. dona	18751	7,0	20175	7,4	107,6
Jun, tonna	57	9,6	68	11,7	119,3
Qorako‘l, dona	420	6,1	588	10,3	140,0

**2021 - yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida asosiy
turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish**


Jami don (tonna)
Jami viloyat bo'yicha
210540




Boshqoli don (tonna)
Jami viloyat bo'yicha
210021



Bug'doy (tonna)
Jami viloyat bo'yicha
207353




Kartoshka (tonna)
Jami viloyat bo'yicha
52241



**2021 - yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida asosiy
turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish**


Sabzavot (tonna)

Jami viloyat bo'yicha
87778




Poliz (tonna)

Jami viloyat bo'yicha
8012




Meva va rezavorlar
(tonna) Jami viloyat
bo'yicha 33186




Uzum (tonna)

Jami viloyat bo'yicha
925




**2021 yil 1 iyul holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni**


**Yirik shoxli
qoramollar(bosh)**
Jami viloyat bo'yicha
927733




**shu jumladan,
sigirlar(bosh)**
Jami viloyat bo'yicha
343405



Qo'ylar va echkilar (bosh)
Jami viloyat bo'yicha
445178



Parrandalar (ming bosh)
Jami viloyat bo'yicha
6144,9




**1 - yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Go'sht (ming tonna)
Jami viloyat



bo'yicha 88,5




Sut (ming tonna)




Jami viloyat


bo'yicha 556,7




Tuxum (mln. dona)
Jami viloyat
bo'yicha 273,6



Jun (tonna) Jami viloyat
bo'yicha 583



Baliq (tonna)
Jami viloyat
bo'yicha 6225,8



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Dehqonchilik mahsuloti – hisobot davrida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yalpi hosili va boshqa dehqonchilik mahsulotlarining qiymatini hamda ko'p yillik yosh ko'chatlarni o'stirish qiymati va yil boshidan yil oxirigacha tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatlarining o'zgarishi yig'indisidir.

Chorvachilik mahsuloti – mollar, parrandalar va boshqa chorva mollarini o'stirish, sut, tuxum, jun, asal va boshqa chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish qiymatlarini o'z ichiga oladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi indekslarini hisoblashda ularning solishtirma narxlardagi qiymatidan foydalaniladi.

O'rmon xo'jaligi – o'rmon va o'rmon resurslaridan foydalanish kabi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. O'rmon xo'jaliklari tomonidan olib borilayotgan ishlar o'rmonlarning holatini yaxshilash, ularni uzluksiz yangilash, zararkunandalar, kasalliklar va noqonuniy kesishdan himoya qilish, sanitariya va yong'inga qarshi dasturlarni ishlab chiqish kiradi. O'rmon xo'jaligi mahsulotlariga terak, eman, qayin, sosna, qoraqarag'ay va boshqa shu kabi daraxtlar ko'chatlarini olish va yetishtirish ham hisobga olinadi. Shuningdek, yovvoyi holda o'suvchi qo'ziqorin va tryufellar, rezavor mevalar, yong'oqlar va boshqalarni terib olingani ushbu tarmoqda hisobga olinadi.

Baliqchilik xo'jaligi – ovlangan baliq, suv bioresurslari va akvakultura sohasining mahsuloti va ko'rsatilgan xizmatlar hajmini, shuningdek, ushbu sohani rivojlantirish, zahiralarni ko'paytirish va yaxshilashni o'z ichiga oladi.

Fermer xo'jaliklari - ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.